

4 (68). – P. 2077–2082. DOI: 10.14505/jemt.v14.4(68).19.

4. Maxmudova Nodira Uktamovna. *O'zbekistonda ta'lim turizmini samarali rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari: PhD dissertatsiya / Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – Toshkent, 2023. – 210 b.*

5. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Rasmiy davlat hujjati, O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. [https://gov.uz/oz/pages/2030\\_strategy](https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy)

6. <https://stat.uz/uz> // O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti.

## **YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA MOLIYA BOZORINING TRANSFORMATSIYALASHUVI**

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li**

*Xalqaro Nordik universiteti, tayanch doktorant,*

**Tohirova Mashhura Ulug'bek qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi zamonaviy iqtisodiy sharoitda moliya bozorining yashil transformatsiyalashuvi jarayonlari hamda ESG (ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) tamoyillarining investitsion muhitga ta'siri tadqiq qilingan. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o'tish davrida an'anaviy moliya institutlarining faoliyatini qayta ko'rib chiqish zaruriyati asoslab berilgan. Tadqiqot davomida yashil moliya vositalarining joriy etilishi bank-moliya tizimi barqarorligini ta'minlash va ekologik risklarni minimallashtirishning asosiy omili ekanligi tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston moliya bozorini ESG mezonlari asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.


**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, moliya bozori, ESG tamoyillari, transformatsiya, yashil moliya, investitsiya, ekologik risklar.

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishlari va ekologik muammolar jahon iqtisodiyoti tizimini tubdan o'zgartirishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda an'anaviy iqtisodiy modeldan yashil iqtisodiyotga o'tish barqaror rivojlanishning yagona yo'li sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ham iqtisodiyotni yashil transformatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish va tabiiy resurslarni asrash ustuvor vazifa etib belgilangan.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni, o'z navbatida, moliya bozorining transformatsiyalashuvini talab etadi. Zero, yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun an'anaviy bank-moliya tizimi yetarli bo'lmay, innovatsion moliyaviy vositalarni joriy etish zaruriyati tug'iladi. Aynan shu nuqtada ESG (Environmental, Social, and Governance) tamoyillari moliya bozorining yangi sifat ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lmoqda.

ESG mezonlari moliya institutlari va investorlar uchun nafaqat foyda olish, balki atrof-muhitga ta'sir, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv sifatini ham baholash imkonini beradi. Moliya bozorining transformatsiyalashuvi jarayonida "yashil obligatsiyalar", "yashil kreditlar" va "barqaror investitsiya fondlari" kabi yangi

segmentlarning shakllanishi iqtisodiyotning real sektoriga ekologik toza texnologiyalarni jalb qilishda muhim drayver bo'lib xizmat qiladi.



**1-rasm. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni<sup>7</sup>**

Yashil iqtisodiyot va moliya bozorining transformatsiyalashuvi masalalari so'nggi yillarda jahon iqtisodiyot fani va amaliyotining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, barqaror rivojlanishni moliyalashtirishning nazariy asoslari ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Xalqaro miqyosda yashil moliya tushunchasi va ESG tamoyillarining bank tizimiga integratsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) hamda Jahon banki hisobotlarida keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda "yashil transformatsiya" tushunchasi moliya bozoridagi risklarni boshqarishning yangi paradigmasi sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, Parij bitimi (2015) talablaridan kelib chiqib, investitsiya loyihalarini ekologik ekspertizadan o'tkazish mexanizmlari xalqaro ekspertlar tomonidan takomillashtirilmoqda<sup>8</sup>.

Mahalliy olimlardan U.P. Jiyanov<sup>9</sup> va V.J. Ilxomova<sup>10</sup> o'z tadqiqotlarida O'zbekiston iqtisodiyotining yashil transformatsiyasi jarayonida resurslardan oqilona foydalanish va "yashil energiya" ulushini kengaytirish masalalariga alohida to'xtalib o'tganlar. Ular yashil iqtisodiyotga o'tishni nafaqat ekologik zaruriyat, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi drayver sifatida baholaydilar. Shuningdek, iqtisodchi olimlar tomonidan moliya bozorining transformatsiyalashuvida davlatning o'rni va qonunchilik bazasini takomillashtirish masalalari ham o'rganilgan. Jumladan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi<sup>11</sup> doirasida moliya bozorida yashil obligatsiyalar emissiyasini yo'lga qo'yish

7 Muallif ishlanmasi

8 United Nations Environment Programme. (2021). *Global progress report on sustainable finance*. UNEP. <https://www.unep.org>

9 Jiyanov, U. P. (2021). *Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida resurslardan samarali foydalanish masalalari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

10 Ilxomova, V. J. (2022). *O'zbekiston iqtisodiyotining yashil transformatsiyasi va barqaror rivojlanish omillari*. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti.

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). *"O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida*. Toshkent.

va ESG reyting tizimini joriy etish masalalari dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etilmoqda.

Biroq tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda moliya bozorini ESG tamoyillari asosida transformatsiya qilishning tashkiliy mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan. Aynan shu jihat mazkur tadqiqot ishimizning obyekti va dolzarbligini belgilab beradi.

Mazkur tadqiqot ishining metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy va mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya hamda statistik guruhlash usullari tashkil etadi. Tadqiqot davomida yashil iqtisodiyotga o'tish davrida moliya bozorining transformatsiyalashuvi jarayonlari har tomonlama o'rganildi.

Moliya bozorining transformatsiyalashuvi jarayonida ESG (Environmental, Social, and Governance) tamoyillari bugungi kunda investitsiya qarorlarini qabul qilishda hal qiluvchi mezon bo'lib xizmat qilmoqda. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish davrida moliya bozorida quyidagi uchta asosiy yo'nalishda transformatsiya kuzatilmoqda:

*1. Yashil moliyaviy instrumentlar segmentining shakllanishi.*

O'zbekiston moliya bozorida yangi turdagi aktivlar — yashil obligatsiyalar (Green Bonds) paydo bo'ldi. 2023-yil sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan “Yashil suveren obligatsiyalar” ushbu transformatsiyaning ilk yirik qadami bo'ldi. Ushbu mablag'lar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish loyihalariga yo'naltirilishi moliya bozorida “yashil likvidlik” hajmini oshiradi.

*2. ESG reytinglarining moliya institutlari faoliyatiga integratsiyasi.*

Bank va sug'urta tizimida mijozlarning ekologik va ijtimoiy mas'uliyatini baholash tizimi joriy etilmoqda. PQ-4477-sonli qaror talablari asosida moliya muassasalari o'z kredit portfellarini past uglerodli yashil iqtisodiyot loyihalari hamda ekologik jihatdan nomaqbul bo'lgan an'anaviy sohalar o'rtasida farqlashni boshladi<sup>12</sup>. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ESG talablariga javob beradigan korxonalar uchun kredit foiz stavkalari 1-2% gacha pastroq bo'lishi mumkin, bu esa moliya bozorining rag'batlantiruvchi funksiyasini oshiradi.

*3. Institutsional transformatsiya va investorlar xatti-harakati.*

Tadqiqot natijalari investorlarning munosabatida jiddiy o'zgarish borligini tasdiqladi. Zamonaviy investorlar nafaqat sof foyda, balki korporativ boshqaruv shaffofligi va atrof-muhitga ta'sir darajasiga ham e'tibor qaratmoqda. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlarini o'z faoliyatini ESG standartlariga moslashtirishga majbur qilmoqda.

Transformatsiya jarayonidagi asosiy muammo - bu ESG ma'lumotlarini ochib berish bo'yicha yagona milliy standartning mavjud emasligidir. Iqtisodiyotning yashil transformatsiyasi uchun nafaqat ekologik texnologiyalar, balki moliya bozorida shaffof “yashil hisobotlar” tizimini joriy etish ham zarur.

---

12 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 4-oktabr). 2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida (PQ-4477-son qaror). <https://lex.uz/docs/4539502>

**Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishdan olinadigan natijalar va ta'sirlar (Green Bond Report, 2023)<sup>13</sup>**

Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish uchun subsidiyalar	2021	2022	2023	Umumiy
Suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qoplangan yer maydoni(ga)	4107	1772	7463	13341
Suvni tejaydigan texnologiyalar bilan ta'minlangan fermerlar soni	32	77	321	430
Suvni tejashning o'rtacha umumiy ko'rsatkichi(m3)	8368964	3682218	14844373	26895555

Jahon bankining "Yashil, barqaror va inklyuziv rivojlanish" (GRID) yondashuviga asoslangan diagnostika yuqori daromadli mamlakatlarga taqqoslaganda o'zgarishlar talab etiladigan sohalarni aniqlaydi<sup>14</sup>. Iqtisodiy mahsulotning iste'mol qilingan har bir kilogramm materialiga 0,8 AQSh dollari miqdoridagi resurs samaradorligi Yevropa Ittifoqi (YI) va boshqa daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlardagi ko'rsatkichdan ancha pastroq – o'rtacha 2,9 AQSh dollari. O'zbekistonda ayniqsa suv samarasiz ishlatiladi: foydalanilgan suvning har bir kubometri uchun iqtisodiy unumdorlik daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlarga qaraganda 14 dollarga past. Hukumat qarori asosida 2021-2023-yillarda jami 1 million gektar yer maydonida tomchilatib sug'orish tizimi joriy etildi. Buning natijasida, qishloq xo'jaligida suv sarfi o'rtacha 40% ga qisqarib, hosildorlik 30-40% oshgan (gazeta.uz).

Olingan natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, moliya bozorining yashil transformatsiyasi faqat ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash emas, balki mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash va xorijiy investitsiyalar oqimini barqarorlashtirishning strategik mexanizmidir.

Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. ESG milliy standartlarini ishlab chiqish: Moliya bozorining barcha ishtirokchilari (banklar, sug'urta kompaniyalari, aksiyadorlik jamiyatlari) uchun yagona yashil hisobot shakllarini joriy etish lozim. Bu investorlar uchun ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlaydi.

2. Yashil moliya instrumentlarini rag'batlantirish: Yashil obligatsiyalar emissiya qilgan korxonalar va yashil kreditlar ajratuvchi tijorat banklari uchun soliq imtiyozlari yoki Markaziy bank tomonidan alohida prudensial normativlar belgilanishi maqsadga muvofiq.

3. ESG-reyting tizimini joriy etish: Mahalliy korxonalarining xalqaro bozorlarga chiqishini jadallashtirish uchun milliy reyting agentliklari tarkibida ESG baholash mezonlarini shakllantirish zarur.

<sup>13</sup> World Bank. (2023). *World Bank green bond impact report 2023*. Washington, DC: World Bank. <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/3886b574f399287fa49a7f4412167b79-0340022024/original/FY23-Green-Bond-Annex-Table-External-View.pdf>

<sup>14</sup> World Bank. (2021). *Green, resilient, and inclusive development*. Washington, DC: World Bank. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/36322>

4. Kadrlar salohiyatini oshirish: Moliya va bank sohasi xodimlari uchun yashil risklarni baholash va ESG-skoring tizimlari bo'yicha maxsus malaka oshirish dasturlarini joriy etish lozim.

Xulosa qilib aytganda, moliya bozorini transformatsiya qilish orqali "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan yashil iqtisodiyotga o'tish maqsadlariga samarali erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *International Capital Market Association (ICMA). (2021). Green Bond Principles: Voluntary Process Guidelines for Issuing Green Bonds.*

2. *Jiyanov, U. P., & Ilxomova, V. J. (2026). O'zbekiston iqtisodiyotining "yashil transformatsiyasi": Imkoniyatlar, muammolar va yechimlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 4(1), 91–98.*

3. *Shodmonov, R., & Mustafakulov, S. (2025). Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in Uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution. Green Economy and Development, 3(4)*

4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, oktyabr 4). 2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida (PQ-4477-sonli qaror).*

5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, sentyabr 11). "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida (PF-158-sonli farmon).*

6. *United Nations. (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development.*

7. *United Nations Environment Programme. (2019). Global resources outlook 2019: Natural resources for the future we want. UNEP Publishing.*

8. *World Bank Group. (2023). Uzbekistan Country Climate and Development Report: Toward a Greener Economy. World Bank Publications.*

9. *The World Bank and the Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan. (2022). O'zbekiston yashil iqtisodiyot sari. World Bank.*

## **QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING YASHIL IQTISODIYOTDAGI O'RNI**

**Ro'ziyeva Dilobar Isomjonovna**

*TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasi, DSc., professor*

**Jo'ramurodova Feruza Mardon qizi**

*TDIU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yashil iqtisodiyot tizimidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlari, ularning barqaror rivojlanishga ta'siri hamda sanoat va hududiy rivojlanishda tutgan roli yoritilgan. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiyani joriy etishning asosiy muammolari va istiqbollari ko'rib chiqilib, yashil iqtisodiyotga o'tishda energetika transformatsiyasining ustuvor yo'nalishlari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** qayta tiklanuvchi energiya, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, uglerod chiqindilari, sanoat integratsiyasi.